

" BOBURNOMA" - NOYOB YODGORLIK

**Mahmudova Dilafruz Sultannazirovna**

*Xorazm viloyati Urganch shahar*

*1-son kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qarama-qarshilikli, murakkab va qisqa hayotida anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, ularning hammasi bizgacha yetib kelmaganligi haqida, Bobur hayotini ilm-fanga, ezgu ishlarga sarflagani haqida, "Boburnoma" asarida nimalar tasvirlanganligi haqida, so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *ilm-fan, Boburnoma, asar, sarkarda, davlat arbobi, shoir, tarixchi, yodgorlik, meros.*

Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo 14-fevral 1483-yil dunyoga keldi. O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda. Boburning otasi — Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi — Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamroxlilik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo'yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o'tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqx ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan „Bobur“ ya'ni „Sher“ laqabini oladi.

Buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur(1483–1530)ning "Boburnoma" asari o'zbek adabiyotini dunyo bo'ylab eng ko'p yoygan asar hisoblanadi. U hozirgacha 25 xorijiy tilga tarjima qilingan.

Yaqinda ana shu noyob adabiy yodgorlikning italyan tiliga tarjimasini mumtoz adabiyot namunalarini zamonaviy nashr etishning yuksak talablari asosida bosilib chiqdi. Uni Italiyadagi tarixiy ilmiy-ommabop asarlarni chiqarishga ixtisoslashgan butun dunyoda mashhur "[Sandro Teti Editore](#)" nashriyot uyi amalga oshirdi.

O'zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri, XVI asr boshlarida yashab ijod yetgan atoqli namoyandalardan Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qarama-qarshilikli, murakkab va qisqa hayotida (1483—1530) anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas. Boburning hozirgacha ilm xazinasiga kelib qo'shilgan asarlari — uncha to'liq bo'lmagan bir devoni, islom dini asoslari bayon etuvchi «Mubayyin» nomli she'riy risolasi, «Volidiya» atalgan tasavvufga oid bir kitobchani nazm bilan tarjimasini, Bobur ixtiro etgan va «Xatti Boburiy» nomi bilai mashhur bo'lgan alfavit jadvali hamda qo'lingizdagi «Boburnoma» asaridan iboratdir. Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan «Boburnoma» asaridir. Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon materialni o'z ichiga

olganligi, til va uslubining go'zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarining diqqatini o'ziga tortgan va uning turli qo'lyozma nusxalari izlana boshlagan va g'arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi.

Asarning asli nomi «Boburiya» bo'lsa-da, uni «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Voqeoti Boburiy» deb atadilar, keyinchalik asar «Boburnoma» degan nom bilan mashhur bo'lib ketdi.

“Boburnoma” – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o'z davridagi ko'plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko'plab tog'lari, daryolari, o'rmon va cho'llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma'lumotlar jamlangan.

**Boburnoma** — jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519—1530). „Boburiya“, „Voqeoti Bobur“, „Voqeanoma“, „Tuzuki Boburiy“, „Tabaqoti Boburiy“, „Tavorixi Boburiy“ kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa „Vaqoye“ va „Tarix“ degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494—1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiysiyosiy voqealar yilmayil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

„Boburnoma“ o'zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko'ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afg'oniston (1504—1524) va Hindiston (1524—1530)dagi hukmdorlik davriga bo'linadi. Birinchi qismda Boburning otasi — temuriylarning Farg'ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461—1494) xususida hamda Boburning Farg'ona taxtiga o'tirishi (1494-yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o'z ulusidan mahrum bo'lishi (15-asr 90- yillari), Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jangu jadallari (1497—1501)ning behuda ketishi va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog'lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg'onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so'ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg'ol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko'ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyni mag'lub etib (qarang Panipat janglari), Shim. Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma'lumotlardan iborat.

#### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Qizi R. B. S. " BOBURNOMA" ASARIDA HUKMDORLAR TASVIRI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 723-730.
2. Alimovna Y. B., Zokirjon o'g'li S. J. "BOBURNOMA" ASARI JAHON OLIMLARI TADQIQOTIDA //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 209-213.
3. Bobur Z. M. Boburnoma //Т.:“Yulduzcha” publishing house. – 1989.